

Sh A R T N O M A № 17

(Tovar-moddiy boyliklar, xom-ashyo va materiallar sotib olish, xizmat ko'rsatish haqida)

«25» mart 2022 yil

Toshkent sh.

«MARVARID MEBELLAR MAJMUASI» X/Ksi rahbari Sattorov B.B bundan buyon bir tomondan «Sotuvchi» deb yo'ritiladi nizom asosida harakat qiluvchi, ikkinchi tomondan Chilonzor tumani maktabgacha ta'lim bo'limi muduri O.Musurmonov nizomi asosida ish yurituvchi bundan buyon «Xaridor» deb yuritiladi va qo'yidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotish, «Xaridor» esa qabul qilib olingan mahsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

II. SHARTNOMA NARHI

2.1.

№	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narhi	So'mmasi (QQS bilan)
1	1 Krovat 2 qavatli (1360x1480x680)	Дюна	150	1 340 000	201 000 000
	Jami				201 000 000

Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi 201 000 000 (ikki yuz bir million) so'm.
(raqamlar, yozuvlar raqam bilan)

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Xaridor» tovar uchun oldindan yetkazib berilayotgan tovar, mahsulot (ko'rsatilgan xizmat) umumiy so'mmasining 30 % miqdorida pul mablagini o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Xaridor» qolgan 70% to'lovni «Sotuvchi» tomonidan tovar yoki mol-mulkni to'lik yetkazib berib, hisob-faktura taqdim qilgandan so'ng pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

IV. TOVAR ETKAZIB BERISH MUDDATI

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 5 kun muddat ichida «Xaridor»ga yetkazib berishi shart.

V. TOVAR SIFATI

5.1. Yetkazib berilayotgan tovar yoki mahsulotlarning sifati belgilangan standartlarga (muvofiglik sertifikat), ishlab chiqarish me'yoriy hujjatlar va «Xaridor»ning talablariga mos kelishi shart.

VI. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. «Sotuvchi» majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Xaridor»ga tovarni yetkazib berish;
- Shartnomaning shartlari «Xaridor» tomonidan buzilganda berilgan mahsulotni qaytarib olib qo'yish huquqiga ega;
- Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilmaganligi to'grisida bildirishnoma olgandan so'ng, sifatli bo'lmagan mol-mulkni 10 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mol-mulk bahosini qaytarib berish.
- «Sotuvchi» yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'lik rekvizitlarni rasmiylashtirishi lozim.

6.2. «Xaridor»ning majburiyatlari:

- «Xaridor» shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan holda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim.
- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 kun ichida «Sotuvchi»ni ogohlantirish.
- To'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

VII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

7.2. «Sotuvchi» tomonidan «Xaridor»ga tovar va mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 0,5 % miqdorida «Xaridor»ga penya to'laydi, lekin penya miqdori yetkazib berilgan mahsulot qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

7.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu mahsulot qiymatining 20 % miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

7.4. «Xaridor» tomonidan olingan tovar yoki mahsulot uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan so'mning 0,4 % miqdorida «Bajaruvchi»ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan so'mning 50 % dan ortiq bo'lmasligi lozim.

7.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar yoki mahsulotlar narhi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

Кўриб чиққан юрист: Shaxriyorov Hamidulla Shuxrat o'g'li. Хужжат рақами: EN5654318580

VIII. FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmay kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tuzidagi holatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek harbiy harakatlar, davlat organlarining aktlari yoki harakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday holatlar tegishlidir.

8.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.

8.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

IX. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo iqtisodiy sud orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan oldin bekor qilish mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022 yil «18» martdan 2022 yil «31» dekabrgacha 3 (uch) nushada tuzildi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yhatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

X. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

10.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishonitiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

SHARTNOMALARNI YURIDIK MANZIL VA REKVIZITLARI :

«Sotuvchi»

«MARVARID MEBELLAR MAJMUASI» X/K

Manzil: Toshkent sh. Chilonzor tum. So'g'alli ota 76A

71 uy

Tel./faks: +998972108026

h/v: 20208000605398120001

Bank nomi: Trastbank Fargona f-li

MFO 01123 STIR 308546374

OKED 31090



Rahbar

Sattorov B.B

«Xaridor»

Chilonzor tuman maktabgacha ta'lim bo'limi

Manzil: Toshkent sh. Chilonzor tum. Diydor ko'chasi

Tel./faks: (71) 270-11-80

sh/h: 100022860262947091100251057

byudjetdan mablag' oluvchi STIRi 305142509

OKONX: _____

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

G'aznachiligi

G'azna h/v 23402000300100001010

Bankning nomi Markaziy bank XKKM Toshkent

MFO 00014

G'aznachilik boshqarmasi STIRi 201122919



Rahbar

O.Musurmonov

Huquqshunos: _____

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

№

1. Loyihaning turi. Shartnoma

2. Loyihaning nomi.

“Marvarid mebellar majmuasi” xususiy korxonasi va Chilonzor tuman maktabgacha ta’lim bo’limi o’rtasidagi 25.03.2022-yildagi 17-sonli “Oldi-sotdi shartnomasi”

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

“Marvarid mebellar majmuasi” xususiy korxonasi va Chilonzor tuman maktabgacha ta’lim bo’limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o’tkazish uchun 25.03.2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



H.Shaxriyorov

2022-yil 28-mart

“TASDIQLAYMAN”

Chilonzor tumani MTB mudiri-Xarid
komissiyasi raisi

O.Musurmonov

Chilonzor tumani Maktabgacha ta’lim bo’limi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining
ehtiyotlari uchun ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va
asbob-uskunalar xarid qilish bo’yicha “Xarid komissiyasi”ning yig’ilishi

BAYONI № 2

2022 yil “25” mart

Toshkent shaxri

KUN TARTIBI:

Chilonzor tumani Maktabgacha ta’lim bo’limi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ehtiyotlari uchun ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo’yicha “Xarid komissiyasi”ning elektron eng yaxshi taklifni tanlash g’olibini e’lon qilish va shartnoma rasmiylashtirish to’g’risida

(O.MUSURMONOV, M.TOPILOVA, M.NIZOMOVICH, O.PANJIYEV, I.ARIPOV, YU.DURDIYEV)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Xarid komissiyasi raisi O.Musurmonov so’zga chiqib, 10.03.2022 yilda 50066-sonli LOT raqami bilan bo’lim tasarrufidagi DMTTlarga mebel jihozlari xarid qilish bo’yicha <https://etender.uzex.uz> tizimiga e’lon berilganligini, kiritilgan takliflar O’RQ-684-son qonun talablari asosida ko’rib chiqilganligini va eng yaxshi taklifni tanlash g’olibi bilan o’rnatilgan tartibda shartnoma rasmiylashtirilishi lozimligini takidlab o’tdi.

Bo’lim bosh buxgalteri Yu.Durdiyev mazkur LOT bo’yicha 2 ta taklif kelib tushganligini va ular quyidagi tadbirkorlar tomonidan kiritilganligini ta’kidlab o’tdi.

1. “EURO ASIA MEBELLARI” MCHJ
2. “MARVARID MEBELLAR MAJMUASI” MCHJ

Komissiya a’zolari elektron tizimdagi shaxsiy kabineti orqali eng yaxshi taklifni tanlash ishtirokchilarining taqdim etgan hujjat va ma’lumotlarni ko’rib chiqib, ball tizimida baholaganligini tasdiqladi.

Xarid komissiyasi raisi O.Musurmonov baholash natijalari bo’yicha 2022 yil 18 mart sanasida elektron tizimda №50066-sonli bayonnoma rasmiylashtirilib muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilganligini va tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o’tkazish natijalari bo’yicha e’tirozlar kelib tushmaganligini ma’lum qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo’yicha Xarid komissiyasi

QAROR QILADI:

1. “MARVARID MEBELLAR MAJMUASI” MCHJ maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ehtiyotlari uchun mebel jihozlari xarid qilish bo’yicha eng yaxshi taklifni tanlash g’olibi deb topilsin;
2. “MARVARID MEBELLAR MAJMUASI” MCHJ va maktabgacha ta’lim bo’limi o’rtasida mebel jihozlari sotib olish bo’yicha shartnoma rasmiylashtirilib g’aznachilik bo’linmasidan ro’yxatdan o’tkazilsin;
3. Mazkur bayonnoma ijrosini nazorat qilishni o’z zimmasida qoldiraman.

KOMISSIYA A’ZOLARI:

Bosh buxgalter


Maxsus ta’irlash-ekspluatatsiya
xizmati boshlig’i

Iqtisodchi

Xo’jalik mudiri



Yu.Durdiyev



O.Panjiyev



I.Aripov



M.Nizomovich